

Davronova Shaxlo Farmonovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
davronova.shahlo@mail.ru

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG-KADRLARIDA RAQAMLI KOMPITENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada bugungi global jarayonlarda pedagog kadrlarni tayyolash bilan bog'liq masalalar va ushbu jarayonda pedagoglarda raqamli kompetentsiyalarning ijtimoiy xususiyatlari haqida fikr bildirilgan. Tahlillar va natijalar ularning sabablari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, pedagog, kadr, raqamlashtirish, informatsiya, axborot, ta'sir, texnologiya, zamonaviy ta'lim, yuksalish.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с подготовкой педагогов в современном глобальном мире и социальные характеристики цифровых компетенций педагогов в этом процессе. Анализы и результаты обсуждаются с указанием их причин.

Ключевые слова: компетентность, педагог, кадры, цифровизация, информация, информация, воздействие, технологии, современное образование, развитие.

MECHANISMS OF FORMING DIGITAL COMPETENCES IN TEACHING STAFF WORKING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. The article discusses the issues related to the training of pedagogues in today's global world and the social characteristics of digital competencies of pedagogues in this process. Analyzes and results are discussed with their reasons.

Key words: competence, pedagogue, personnel, digitization, information, information, impact, technology, modern education, development.

Kirish. Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Har bir mamlakatga axborot texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalarning kirib borishi barcha sohalardagi munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda jamiyat hayotining barcha jabhalarini axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Kompyuter texnologiyalari sanoat ishlab chiqarishi va biznes, ijtimoiy hayot va ta'lim, fan va madaniyatda ta'sirli darajada o'zgarishlarga olib keldi. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda.

Davlatlar o'rtasidagi globallashuv jarayonlari internet, shaxsiy raqamli qurilmalar va tezkor ma'lumotlarni uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishiga sabab bo'lib, dunyo ta'lim sohasida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Jahon ta'lim tizimini global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirib borish, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng qo'llash talabini quymoqda va tahsil oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu IT ta'lim texnologiyalari vositasida ta'limni tashkil qilish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy izlanishlar zahirida turli axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni samarali tashkil qilish masalalarini o'rganishga qiziqish kuchaymoqda [2].

Tahlillar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi rivojlanish darajasi, turli soha va tarmoqlarni raqamlashtirish hayotimizni global internetsiz tasavvur etib bo'lmashligini ko'rsatmoqda. Ta'lim muassasalari faoliyati, ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida raqamli makonga o'tishga "majbur qilindi".

Eng asosiy vazifa "Raqamli O'zbekiston-2030" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to'liq hamda kompleks o'zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil, 23-sentyabrda qabul qilingan Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida oliy ta'lim haqida: "Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshirilishi va oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi"-deb e'tirof etilgan [1].

Raqamli texnologiyalar endilikda shunchaki trend emas, balki rivojlanishning asosiy vositasi sifatida ahamiyat kasb etib borayotir. O'zbekistonda ta'lim, sog'liqni saqlash hamda davlat xizmatlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Davlat boshqaruvi sohasida elektron hukumat loyihalarining tatbiq qilinishi byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va bunda fuqarolar ishtirokini faollashtirish imkonini berayotir.

Davlatimiz rahbari huzurida 2022-yil 8-iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, "Elektron hukumat" xizmatlariga talab kundan kunga ortmoqda. Lekin hozir 780 turdagi davlat xizmatidan bor-yo'g'i 185 tasidan "elektron portal" orqali foydalanish imkoni mavjud. Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjat almashinuvini elektronlashtirish bilan cheklanmoqda. Bu borada elektron hukumatni yanada rivojlantirish, fuqarolar uchun zamonaviy qulay davlat xizmatlarni ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonni jadallashtirish maqsadida eng muhim yo'nalish va dolzarb masalalarni qamrab olgan 104 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan[3].

Raqamli texnologiyalarining rivojlanishi juda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatishda katta rol o'ynadi. Raqamli texnologiya tadqiqotchi va manba o'rtasidagi chegaralarni yo'q qildi va ma'lumot olish vaqtini sezilarli darajada qisqartirdi. Bugungi kunda kutubxona va arxivlarda yaratilgan raqamlashtirilgan kitoblar, gazetalar va turli hujjatlar banklari ushbu tuzilmalarning joylashgan joyidan qat'i nazar, mijozlarga tezroq xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Ya'ni, raqamli axborot texnologiyalar bugungi kunda tadqiqotchilar va axborot manbalari o'rtasidagi chegaralarni olib tashladi, ularga zarur ma'lumotlarni katta mablag' sarflamay olish imkonini berdi, axborotga kirish uchun rasmiyatchilikka vaqtni tejash imkonini berdi va virtual muloqot uchun sharoit yaratdi. Shubhasiz, tadqiqotchilar uchun ochiq elektron kutubxona va arxivlar katta qulaylik tug'diradi, ulardan hech qanday moddiy xarajatlarsiz axborot olish mumkin.

Internetda academia.edu kabi veb-saytlarning mavjudligi turli mamlakatlar olimlariga tadqiqot natijalari bilan bo'lishish, shunga o'xshash dasturlar shuningdek, mualliflarning iqtiboslar darajasini, ularning asarlarini o'qish darajasini aniqlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda butun dunyoni qamrab olayotgan pandemiya sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishda, tadqiqotchilarning axborot manbasidan foydalanishida raqamli texnologiyalar katta rol o'ynamoqda. Bugungi kunda universitet yoki maktabdagi darsni, konferentsiyalarni multimedia vositalaridan foydalangan holda elektron taqdimotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Raqamli texnologiyalar axborotni saqlash xususiyatiga, aniqrog'i buning uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazada o'z izini qoldirdi.

Agar ilgari kutubxona va arxivlarda tobora ko'payib borayotgan kitoblar, gazetalar, jurnallarni saqlash uchun qo'shimcha xonalarning mavjudligi talab qilingan bo'lsa, keyin kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan bu katta manbalarning barchasi kompyuterlarda, disklarda, flesh-disklar va boshqa elektron vositalarda saqlanishi mumkin bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar ayniqsa yoshi katta bo'lgan axborot manbalarining: turli xil eski qo'lyozmalar, kitoblar, eski gazeta va jurnallarning xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, nodir manbalarni uzoq muddatga xavfsizligini hamda ularni tashqi mexanik ta'sirlardan himoyasini ta'minlashda muhimdir.

Bugungi kunda global muhokama nuqtalari innovatsiyalarni boshqarish va oliy ta'limda raqamlashtirishni joriy etishni o'z ichiga oladi. Ushbu omillarni uyg'unlashtirib, muvozanatlash orqali raqamlashtirish oliy ta'limning innovatsion salohiyatini oshirish va o'quv dasturlarida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni ko'paytirishning kaliti bo'lishi mumkin. Bu esa, pirovardida, talabalar tomonidan bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Xulosa: "Raqamlashtirish" atamasi insoniyat jamiyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq tendensiyalar asosida qo'llab-quvvatlanadigan biznes strategiyasini anglatadi. Aqlli shahar va obyektlarning o'sishi dunyodagi asosiy mavzulardan biri sifatida raqamlashtirishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy mamlakatlar rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi raqamli shakldagi axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish uchun yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishga urg'u beradi. Raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiyotni kengaytirish tartib-qoidalari tezroq harakatlanar ekan, oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida xalqaro, marketing, moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni o'zgartirmoqda. Ta'limda raqamlashtirish texnologiyalarni qo'llashni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik raqamli texnologiyalarni o'qitishning ilg'or hamda noan'anaviy yondashuvlaridan tashqariga chiqmoqda. Raqamlashtirish ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik strategiyasiga, shuningdek, davlatning ta'lim siyosatiga kiritilishi ayni muddao. Hozir dunyoda talabalar boshlang'ich maktabdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda smartfon, planshet va noutbuk kabi raqamli qurilmalardan foydalanishga odatlangan. Ko'pchilik gadjetlardan muloqot va o'yin-kulgi uchun foydalanadi. Biroq o'zgaruvchan dunyo yoshlardan ushbu texnologiyalar orqali o'rganish va ta'lim olishi kerakligini talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida - LEX.UZ
- 2.Потемкина Т.В. Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенции учителя.Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018.№2 с.25
- 3.А.В.Владико. Компетенции педагога для эффективной работы в цифровой образовательной среде.2020
- 4.Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: —Tafakkur nashriyoti, 2020 y. 120 bet.